

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING SAYLOVLARDA ISHTIROK ETISH HUQUQINING TA‘MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
Rayimberganova Dilxiroj Ravshonbek qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylovlarda ishtirok etishi huquqini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan Xorijiy davlatlar tajribasiga tayanilgan holda, saylov jarayonida nogironlar uchun qulay muhit yaratish, texnik va tashkiliy sharoitlarni ta‘minlash, ovoz berishdagi mustaqillik va maxfiylik prinsiplariga rioya qilish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligini oshirish, ularning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga jalb etish, inson huquqlarini teng asosda amalga oshirish, ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirish va konstitutsiyaviy adolatni qaror toptirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Nogironligi bo‘lgan shaxs, nogironlik, konvensiya, Braille, O‘zbekiston, BMT, YI, Daniya, Germaniya, Shvetsariya, Janubiy Koreya

KIRISH

Dunyoda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb ahamiyatli masalalardan biriga aylandi. Jahonda alohida e‘tiborga muhtoj shaxslar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya ko‘plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi. Konvensiyaning xalqaro miqyosda jahon davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilinishi bu toifa shaxslar huquqlarini himoya qilish masalasida tizimli yondashuvlar yuzaga kelishini taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalda ta‘minlash mamlakat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining saylovdan keyingi birinchi yalpi majlisidagi nutqida- “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatga to‘laqonli moslashuvini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganini hamda Biz uchun nogironligi bo‘lgan insonlarni ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga jalb etish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi, degan so‘zlari imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta‘minlanishi davlat muhofazasida ekanligini tasdiqlaydi”¹.

¹ Inobat Hakimova, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bosh mutaxassisi O‘ZA. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi muhim omildir. Elektron manba: <http://pravacheloveka.uz/oz/news/nogironligi-bolgan-shaxslarning-ijtimoiy-hayotga-integratsiyasi-muhim-omildir>

Ma'lumki, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash qonunchiligi takomillashib borar ekan, bu toifa shaxslar saylov tizimida ham sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirish, strategik maqsadlarga mo'ljallangan izchil islohotlarni to'g'ri tashkil etish va bu chora-tadbirlar negizida samaradorligi yuqori darajadagi ilmiy-amaliy, huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish ehtiyoji ham oshib boraveradi. Shundan kelib chiqib, nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqi va sohadagi qonunchilik asoslari, kafolatlari tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, ularni sohaviy xalqaro andazalarga moslashtirish hayotiy zaruratga aylandi. Shu ma'noda yoshlarni, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarga bo'lgan e'tiborni nechog'lik dolzarb ahamiyat kasb etishini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da, uning mantiqiy davomi bo'lgan "Taraqqiyot strategiyasi"da, shuningdek, davlat rahbarining 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi parlamentiga yo'llagan prezident murojaatnomasida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, davlat rahbarining "2023 yil 1 iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ma'lumot sifatida aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda nafaqa oluvchilar soni 2016 yilda 466 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 2 milliondan oshdi"².

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylovlarda ishtirok etishi huquqini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan Xorijiy davlatlar tajribasiga tayanilgan holda, saylov jarayonida nogironlar uchun qulay muhit yaratish, texnik va tashkiliy sharoitlarni ta'minlash, ovoz berishdagi mustaqillik va maxfiylik prinsiplariga rioya qilish mexanizmlari haqida so'z yuritir ekanmiz

METODOLOGIYA

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqini ta'minlash mexanizmlarini o'rganishda quyidagi ilmiy metodologik asoslar tanlab olindi:

Tadqiqotda sistemali yondashuv asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqiga oid huquqiy, siyosiy va ijtimoiy mexanizmlar tahlil qilindi. Shuningdek, institutsional yondashuv orqali davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu sohadagi roli o'rganildi.

Huquqiy tahlil usuli: xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari (BMT konvensiyalari, saylov kodekslari, konstitutsiyalar) asosida normativ-huquqiy asoslar o'rganildi

² O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi. Elektron manba: https://uza.uz/oz/posts/ijtimoiy-himoyaga-muhoj-shaxslar-doimiy-etiborda-video_725942

Taqqoslama tahlil usuli: xorijiy davlatlar (masalan, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya) tajribasi bilan O‘zbekiston amaliyoti solishtirilib, ularning samarali mexanizmlari aniqlanib, o‘rganildi;

Empirik tahlil usuli: mavjud statistika, nogironlar tashkilotlarining hisobotlari, saylovdagi ishtirok ko‘rsatkichlari tahlil qilindi;

Tarixiy yondashuv: nogironlar saylov huquqining evolyutsiyasi, ya’ni tarixiy rivojlanish bosqichlari ko‘rib chiqildi;

Sotsiologik usullar: intervyu yoki ijtimoiy so‘rovnomalar asosida nogironlar, ularning huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, MSK vakillarining fikrlari o‘rganilishi mumkin.

Tadqiqotda quyidagi manbalarga tayanildi: BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi”; Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi va YeI tajribalari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Saylov kodeksi, “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni; Tegishli dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari. Mazkur metodologik yondashuvlar orqali aniqlangan xulosalar va tavsiyalar O‘zbekistonning saylov tizimida inklyuzivlikni kuchaytirish, nogironlar uchun qulay muhit yaratish va ularning fuqarolik faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL

Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylov huquqini ta’minlash masalasi global miqyosda e’tibor markazida turibdi. BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi” 29-moddasida “nogiron shaxslarning siyosiy va jamoat hayotida ishtirok etish huquqi kafolatlanadi”³. Shunga qaramay, ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, rivojlanayotgan davlatlarda bu huquqni amaliyotda to‘laonli ta’minlashda muammolar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida saylov huquqi Konstitutsiyaning 128-moddasi va Saylov kodeksi bilan mustahkamlangan. Nogironlar huquqlariga oid maxsus huquqiy asoslar esa “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi BMT konvensiyasi hamdan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilanadi. Ushbu huquqiy hujjatlar saylovda ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Biroq qonunchilikda ayrim hollarda umumiy deklarativ me’yorlar mavjud bo‘lib, ular amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan. Misol uchun, Saylov kodeksida nogironlar uchun qulay shart-sharoit yaratish haqida umumiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa-da, ovoz berish uchun texnik qulayliklar (braille alifbosidagi byulletenlar, ovozli qurilmalar, mobil saylov qutilari va h.k.) har doim ham to‘liq joriy etilmagan.

³ Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. – Nyu-York, 2006. (29-modda).

Amaliyotda saylov uchastkalarida nogironlar uchun rampalar, liftlar, keng eshiklar yoki eshitish, ko‘rish nuqsonlari uchun moslashgan texnik vositalar yetarli emas. Ba’zi hududlarda bu borada ijobiy qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, ularning muntazamligi va sifat darajasi bir xil emas. Aholining og‘zaki so‘rovlariga ko‘ra, ayrim nogiron fuqarolar saylovda qatnashishni lozim deb bilmaydi, chunki ular uchun yaratilgan sharoitlar yetarli emasligini aytishadi. Shuningdek, saylov uchastkalaridagi xodimlarning nogironlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Bu esa xizmat ko‘rsatish sifati va tenglik tamoyilining buzilishiga olib keladi.

Germaniya va Skandinaviya davlatlarida nogironlar uchun saylov imkoniyatlari yuqori darajada ta‘minlangan. “Germaniya Federal Konstitutsiyaviy Sudi 2019-yil 29-yanvarda vasiylik ostidagi taxminan 85 ming nafar nogiron fuqaroni saylovda qatnashishdan chetlatish konstitutsiyaga xilof ekani haqida qaror chiqardi. Sud qaroridan so‘ng tez orada qonunchilikka tegishli o‘zgartish kiritilib, ruhiy va intellektual nogironligi tufayli vasiy qo‘yilgan shaxslarning ham saylov huquqi tiklandi. Qonunchilik nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylovlarda ishtirok etmasligini qonunga zid deb topdi”⁴. Yevropa prezidenti Jyrki Pinomaa shunday dedi: “Konstitutsiyaviy sudning bu ochiq-oydin diskriminatsiyaga chek qo‘yish to‘g‘risidagi qarori vasiylik ostidagi odamlarning saylov huquqlarini cheklab qo‘yayotgan barcha Yevropa mamlakatlari uchun yo‘lni ko‘rsatmoqda. Bu Ispaniya va Daniyadagi so‘nggi ijobiy o‘zgarishlardan so‘ng. Bugun Yevropada demokratiya uchun ajoyib kun! Yevropa saylovlariga yaqin qolganda, qonunchilar may oyida nogironlar o‘z ovozlari berishlari uchun tezda harakat qilishlari kerak.”⁵

Shvetsiyada nogironlar uchun mobil ovoz berish punktlari mavjud, va saylovdan oldin har bir fuqaroning maxsus ehtiyojlari ro‘yxatdan o‘tkaziladi. AQShda esa ovoz berish uskunlari nogironlarga moslashtirilgan va maxsus yordamchilar ishtirokida saylov amalga oshiriladi.

Janubiy Koreyada esa saylov tizimida nogironlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus infratuzilmalar joriy etilgan: audio-ovozli yo‘riqnomalar, elektr aravachalar uchun kirish yo‘llari va raqamli byulletenlar bilan ta‘minlangan. Bu esa ularning ovoz berish huquqini kamsitishsiz amalga oshirishiga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda quyidagi mexanizmlarni rivojlantirish dolzarbdir:

Saylov uchastkalarida universal dizayn tamoyiliga asoslangan infratuzilma yaratish

⁴ “A great day for democracy in Europe”: German Constitutional Court declares it unconstitutional to strip people under full guardianship from voting rights// Elekton manba: secretariat@inclusion-europe.org

⁵ The full EESC report Real rights of persons with disabilities to vote in European Parliament elections can be found here in all 24 EU official languages: www.eesc.europa.eu/the-real-right-of-persons-with-disabilities-to-vote

Nogiron fuqarolar uchun ovoz berishda braille byulletenlari, audio tizimlar, mobil saylov qutilari joriy etish;

Saylov komissiyasi xodimlarini nogironlar bilan ishlash bo'yicha muntazam o'qitish;

Nogironlar tashkilotlarini saylov jarayonining hamkor subyekti sifatida faol jalb etish;

Elektron ovoz berish tizimlarining rivojlantirilgan va inklyuziv variantlarini sinovdan o'tkazish.

NATIJA

Hozirgi kunga kelib, "Germaniyada yuqoridagi choralar nogironlarning siyosiy hayotda ishtirokini sezilarli darajada kengaytirgan. Xususan, qonunchilikdagi o'zgarish natijasida 2019-yilga kelib vasiylik ostidagi 85 mingdan ziyod fuqaro ilk bor saylovlarda qatnashish imkoniga ega bo'ldi. Ko'zi ojizlar uchun Braille-shablon qo'llanilishi ham ijobiy natija berib, ko'zi ojiz saylovchilarning yordamchiga ehtiyoj sezmasdan ovoz berish holatlari ortgan. Shu bilan birga, Germaniya tajribasi ayrim muammolar hamon saqlanayotganini ko'rsatadi. Masalan, ba'zi eski binolarda joylashgan saylov uchastkalarini to'liq moslashtirish muammosi bor – 2017-yilda o'tkazilgan bir tadqiqotga ko'ra, saylovchilarning ma'lum qismi hali ham uchastkaga kirishda jismoniy to'siqlarga duch kelgan. Shunga qaramay, umuman olganda Germaniya nogironlar saylov huquqini ta'minlash borasida Yevropada ilg'or davlatlardan biri sifatida tilga olinadi. Yevropa Ittifoqi doirasidagi baholashlarga ko'ra, Germaniya rasmiy saylov saytlarida nogironlar uchun qulay interfeys va oddiy tildagi axborotlar taqdim etishda namuna bo'layotgan mamlakatlardan biridir"⁶.

Janubiy Koreyada esa ko'zi ojizlar uchun saylovoldi tashviqot materiallarini Brailleda nashr qilish qoidasi joriy qilingan (nomzodlar Braille buklet taqdim etishi shart). Shuningdek, markaziy televideniya saylovga oid rolik va debatlar ishora tilida tarjima bilan beriladi. "Eshitish bo'yicha nogironligi bo'lgan ilk deputat Kim Ye-ji tashabbusi bilan saylov materiallarini ko'zi ojizlar va karlar uchun QR kodli maxsus web-kontent shaklida chiqarish, Braille buklet hajmiga qo'yilgan cheklovni bekor qilish kabi takliflar tayyorlanmoqda. Janubiy Koreyada, shuningdek, og'ir jismoniy nogironligi sabab uyda qolgan fuqarolar uchun ko'chma saylov qutisi orqali uyiga borib ovozini olish amaliyoti ham bor (oldindan ariza asosida). Ushbu usul yillar davomida qo'llanib kelinadi va nogironlar qamrovini oshirishga xizmat qiladi. Saylov komissiyalari tarkibida nogironlar masalalari bo'yicha maslahatchilar shtati joriy qilingan – ular saylovchilardan kelgan taklif va shikoyatlar asosida muammolarni hal etishda ko'maklashadi Janubiy Koreyada rasmiy statistikaga ko'ra, nogironligi bo'lgan

⁶Deutscher Bundestag. (2019). Gesetz zur Stärkung der politischen Teilhabe betreuter Menschen. Berlin: Bundestagsdrucksache.

saylovchilarning saylovlarda ishtirok darajasi nisbatan yuqori – taxminan 70% atrofida ekanligi aytiladi”⁷. Bu ko‘rsatkich juda e‘tiborga molik (umumiy aholi ishtirokiga deyarli teng), ammo sifati jihatidan hali muammolar mavjud. Ayni paytda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan saylovchilar siyosiy ishtirokida sustlik kuzatilmoqda. 2025-yilgi saylov oldi davrida aqliy nogironlar guruhi tomonidan Seulda o‘tkazilgan matbuot anjumanida “rivojlanish nuqsonli fuqarolarning ovoz berish huquqi amalda yo‘q holda qolayotgani” tanqid qilindi va hukumatdan tezroq chora ko‘rish talab qilindi. Ijobiy tomoni shuki, Janubiy Koreyada oxirgi yillarda nogironlarning siyosiy huquqlarini ta‘minlash borasida jamoatchilik faolligi oshdi, partiyalar ham bu masalaga e‘tibor qaratmoqda. Ba‘zi siyosiy partiyalar (masalan, Demokratik partiya va mehnatkashlar partiyasi) saylovoldi materiallarini nogironlarga mos shaklda chiqarish tashabbuslarini qabul qilganini ko‘rish mumkin. Umuman, Janubiy Koreya tajribasi nogironlarni saylov jarayonlariga jalb etishda ijobiy dinamika borligini, biroq ba‘zi huquqiy normalarni takomillashtirish va ko‘proq moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil demokratik davlat sifatida har bir fuqarosining, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarning ham siyosiy huquqlarini ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilgan. Biroq amalga oshirilgan tahlillar asosida ma‘lum bo‘ldiki, bu yo‘nalishda mavjud normativ-huquqiy asoslar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni amaliyotda to‘laqonli joriy etish va qulay, inklyuziv saylov muhitini yaratishda muayyan kamchiliklar mavjud. Xususan, saylov jarayonining texnik, tashkiliy va insoniy resurslar jihatidan yetarlicha moslashtirilmagani, axborotga bo‘lgan ochiqlik va shaffoflikning ba‘zan cheklangani, nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olmagan yondashuvlar ularning saylov huquqlarini ro‘yobga chiqarishda jiddiy to‘siqlar tug‘dirmoqda.

Xalqaro tajriba, jumladan, Yevropa davlatlari va Osiyodagi ilg‘or mamlakatlar misolida shuni ko‘rish mumkinki, nogironlar uchun maxsus imkoniyatlar yaratish ularning siyosiy faolligini oshiradi, fuqarolik jamiyatini mustahkamlaydi va davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi ishonchni kuchaytiradi.

Yuqorida keltirilgan xulosa va tahlillardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Saylov kodeksiga qo‘shimchalar kiritish – nogironlar uchun qulayliklar yaratish bo‘yicha aniq va majburiy me‘yorlar belgilanishi zarur (masalan, har bir saylov uchastkasida rampalar, audio vositalar, braille yozuvi bo‘lishi majburiy tarzda ko‘rsatilishi kerak).

⁷ OHCHR. (2025). Thematic Study on Participation in Political and Public Life by Persons with Disabilities. Retrieved from <https://www.ohchr.org/en/documents/thematic-reports/thematic-study-participation-political-and-public-life-persons>

2. MSK (Markaziy saylov komissiyasi) doirasida "inklyuziv saylovlar bo'limi" tashkil etish, bu bo'lim nogironlar uchun texnik vositalarni joriy qilish, xodimlarni o'qitish va monitoring qilish bilan shug'ullanishi kerak.

3. Saylov uchastkalari xodimlari uchun nogironlar bilan muloqot qilish va xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus o'quv dasturlari tashkil etish, bu orqali xizmat ko'rsatish sifati oshiriladi.

4. Nogironlar tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini saylov jarayonlariga faol jalb qilish, ular nazorat, maslahat va targ'ibot ishlari bilan shug'ullanishlari mumkin.

5. Axborot-targ'ibot vositalarida nogironlarning saylov huquqi to'g'risida alohida kontent yaratish, bunday kontent soddalashtirilgan tilda, ishorali til va audio formatda bo'lishi kerak.

6. Elektron ovoz berish tizimlarining inklyuziv variantlarini ishlab chiqish, bu nogironlarning mustaqil va xavfsiz ovoz berish imkonini kengaytiradi.

7. Xalqaro tajriba asosida pilot (tajriba) loyihalar joriy qilish, ya'ni ayrim saylov uchastkalarida ilg'or texnologiyalarni sinab ko'rish va ularning natijalari asosida respublika bo'ylab joriy etish.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqini to'laqonli ta'minlash – nafaqat konstitutsiyaviy majburiyat, balki inson huquqlarining ustuvorligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi muhim shartdir. Saylov – bu jamiyat hayotida ishtirok etishning eng oliy shakli bo'lib, har bir fuqaro, qanday jismoniy imkoniyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, undan teng asosda foydalanishi shart. O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda muayyan yutuqlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, mavjud mexanizmlarning amaliyotda to'laqonli ishlamasligi, infratuzilmadagi muammolar, axborot yetishmovchiligi va ijtimoiy ongdagi muayyan stereotiplar nogiron fuqarolarning siyosiy hayotda faolligini cheklab qo'ymoqda.

Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqlarini amalga oshirish bo'yicha tizimli yondashuv, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarning uyg'unligi, xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan real chora-tadbirlar va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar bu sohada ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Bu esa nafaqat nogironlar uchun, balki butun jamiyat uchun tenglik, adolat va demokratiya tamoyillarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. – Nyu-York, 2006. (29-modda).

2. Inobat Hakimova, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bosh mutaxassisi O‘ZA. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi muhim omildir. Elektron manba: <http://pravacheloveka.uz/oz/news/nogironligi-bolgan-shaxslarning-ijtimoiy-hayotga-integratsiyasi-muhim-omildir>
3. O ‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi. Elektron manba: https://uza.uz/oz/posts/ijtimoiy-himoyaga-muhtoj-shaxslar-doimiy-etiborda-video_725942
4. “A great day for democracy in Europe”: German Constitutional Court declares it unconstitutional to strip people under full guardianship from voting rights// Elektron manba: secretariat@inclusion-europe.org
5. The full EESC report Real rights of persons with disabilities to vote in European Parliament elections can be found here in all 24 EU official languages: www.eesc.europa.eu/the-real-right-of-persons-with-disabilities-to-vote
6. Deutscher Bundestag. (2019). Gesetz zur Stärkung der politischen Teilhabe betreuter Menschen. Berlin: Bundestagsdrucksache.
7. OHCHR. (2025). Thematic Study on Participation in Political and Public Life by Persons with Disabilities. Retrieved from <https://www.ohchr.org/en/documents/thematic-reports/thematic-study-participation-political-and-public-life-persons>